

O'ZDJTU REKTORI ILXOMJON TUXTASINOV TABRIGI

Assalomu alaykum, hurmatli bugungi anjuman ishtirokchilari, hurmatli ustozlar, ilm-ma'rifat ulashuvchi o'qituvchi-professorlar, tadqiqotchilar, soha mutaxassislari!

Avvalam bor bizni bugungi tadbirga qiziqish bildirib, tashrif buyurganingiz uchun minnatdorlik bildiramiz!

Hurmatli mehmonlar, xush kelibsizlar!

Mamlakatimiz Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy hamda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar dolzarb sanaladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni va 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Tarjimonlik fakulteti Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishdir.

Oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish, Oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari va mazkur yo'nalishdagi xalqaro tajribani o'rganish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish, xalqaro tajribalar asosida Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish strategiyasi, ta'lim tizimida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash kabi dolzarb muammolar va ularning yechimlari bo'yicha o'zaro fikr almashish zaruriyati mavjud.

Ushbu xalqaro anjuman respublikamiz Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini

yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish kabi dolzarb mavzularga bag'ishlanadi.

Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası tashkil topgan 2022-yildan hozirgacha katta yutuqlarga erishdi. Bu qisqa fursat mobaynida kafedra a'zolari Italiyaning 10 taga yaqin yuqori nufuzli universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini bog'lashdi, 60 ga yaqin italyan yo'nalishi talabalarini Italiyaga qisqa hamda uzoq muddatli o'qishga yuborishga erishishdi, Italiya Prezidenti Serdjo Matarellaning "Orso Blu" asarini, Marko Poloning "Il Milione" asarini o'zbek tiliga tarjima qilishdi, davlat ahamiyatiga ega tadbirlarda tarjimon sifatida ishtirok etishdi. Ularning fidokorona mehnati tufayli yuqori malakali kadrlar yetishib chiqmoqda.

Hurmatli ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari, ustozlar va qadrli mehmonlar!

Bugungi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda oltita yo'nalishda turli ma'ruzalar va fikrlar muhokama qilinishi nazarda tutilgan. Xususan:

- Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodlar;
- Sun'iy intellekt asosidagi ilovalar yordamida xorijiy tilini o'rgatish;
- Raqamlashtirish davrida filologiya masalalari;
- Tilshunoslik va lingvodidaktika muammolari va yechimlari;
- Tarjimashunoslik va tillararo aloqa muammolari;
- Italyan, o'zbek va jahon adabiyotshunosligi rivoji.

O'ylaymanki, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda o'zingizni qiziqtirgan savollarga, jumladan, ilm-fan taraqqiyotiga oid masalalar va ta'lim sohalaridagi muammolar, yutuqlar hamda ularning yechimlari yuzasidan olimlarning ma'ruzasi va muhokamalari orqali javob topasiz degan umiddaman.

Mazkur **"Italyan tilini xorijiy til sifatid'la o'qitishning dolzarb masalalari va yechimlari"** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman natijalari kelgusida ilm-fan rivojiga xizmat qila oladigan muhim manba bo'lishiga ishonaman.

Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori